

YASHIRIN IQTISODIYOTNI JAMIYATGA TA’SIRI

Turgunboyeva Nozima Muzaffar qizi*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashirin iqtisodiyotning jamiyat hamda iqtisodiyotning rivojlanishidagi o‘rni, mazkur sohadagi muammolarning kelib chiqishi, sabablari va taklif etilgan oqibatlarini qisqacha sharhlab beriladi.

Kalit so‘zlar: Xufiyona iqtisodiyot, moliyaviy mexanizmlar, integratsiya jarayoni, korrupsion jinoyatlar

KIRISH.

XX asrning 70-yillaridan boshlab ilmiy tadqiq qilish boshlangan iqtisodiyotning bir bo‘lagi yashirin iqtisodiyot — davlat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to‘lamaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan, oshkora olib borilmaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va is‘temol jarayonlarini qamrab oladigan iqtisodiy faoliyat turi. Uning negizida ayrim kishilar yoki guruhlarning manfaatlari yotadi. Yashirin iqtisodiyot dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida mavjud. Xalqaro valyuta fondi tomonidan tasdiqlangan ba‘zi omillar (soliq tizimidagi murakkablik, biznesni rasmiylashtirishga harajatlar hamda ijtimoiy sug‘urta badallari yuki) yashirin iqtisodiyotga ta’sir qiladi. Bundan kelib chiqadiki moliyaviy mexanizmlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi sabab bo‘ladi. Ya’ni narxlar, soliqlar, bojlar, imtiyozlar, jarimalar hamda subsidiyalar iqtisodiyotning bir bo‘lagi bo‘lgan yashirin iqtisodiyot ko‘lamiga bevosita yoki bilvosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasi yuqori bo‘is keyingi yillarda biznesga qo‘shimcha qulayliklar yaratish orqali yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish chora-tadbirlari ko‘rilmog‘da. Xususan, valyuta bozori erkinlashtirilishi, yangi soliq tizimi joriy etilishi, 100 ga yaqin ruxsat berish va litsenziyalash qoidalari qisqartirilishi buning yaqqol dalilidir. Bularning natijasida oxirgi 5 yilda sanoatda norasmiy sektor ulushi 20 foizdan 6 foizga tushgan.

Adabiyotlar sharhi

Abdulqosimov H.P va Muminov N.G fikriga ko‘ra, hozirgi vaqtda iqtisodiyot globallasuvi, integratsiya jarayonlarining yanada chuqurlashib borishiga va bu mamlakatlar o‘rtasidagi rasmiy chegaralarning susayib borishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda dunyoning har qanday burchagida yuzaga kelgan ilg‘or (ham yaxshi, ham yomon ma’noda) usullar jadal ravishda butun dunyoga tarqab ketmoqda. Shuning uchun iqtisodiyotning xufiyona iqtisodiyotni namoyon bo‘lish shakllari bilan birga ularni aniqlash, baholash usullari hamda unga qarshi kurashish yoki qonuniylashtirish

yo‘nalishlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida “Islohotlarimizga jiddiy to‘sqinlik qilayotgan “yashirin iqtisodiyot”ga barham berilmas ekan, sog‘lom raqobat ham, qulay investitsiya muhiti ham shakllanmaydi. Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda, xorijiy mutaxassislarini jalb etgan holda, “yashirin iqtisodiyot”ning vujudga kelish omillarini chuqur tahlil qilib, unga qarshi kurashish dasturini tasdiqlasin” deb ta’kidlagan.

Fernando de Sotoning “Boshqa yo‘l” asarida yashirin iqtisodiyotni xalqning korrupsiyalashgan davlatning qashshoqlashayotgan aholining asosiy ehtiyojlarini qondirishga layoqatsizligiga nisbatan stixiyali va ijodiy reaksiyasi (javobi) deb atadi. U tarnaksiya xarajatlarini oshkoralik (legallik) va nooshkoralik (nolegallik) asosida guruhlashni taklif etgan.

O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyot ko‘lamining kattaligini norasmiy iqtisodiyot sektorida band bo‘lgan kishilar sonining kattaligini ham ko‘rsatib turibdi. 2020-yil 18- fevral kuni Toshkentda «O‘zbekiston Respublikasida davlat va jamiyat qurilishining yangi bosqichi, mamlakatni demokratik modernizatsiyalashda parlament va hokimlik vakillik organlarining rolini oshirish» mavzusida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining o‘rinbosari B.X.Umrzoqov «2020 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, band bo‘lgan aholi soni 13 million 541 ming nafar kishini tashkil etadi. Shundan 5 million yeti yuz ming kishi rasmiy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanadi. 8 millionga yaqini esa norasmiy. Ya’ni bu toifadagi insonlar har kuni norasmiy ishlab, cho‘ntagini pulga to‘ldirib uyga borishadi. Bolalari, maktab, bog‘chalar va hokazolarga berishadi. Lekin davlatga bular bir tiyin ham soliq to‘lamaydi, to‘lovlarni qilmaydi. Ya’ni davlatimizning qudratiga, quvvatiga hissa qo‘shmaydigan 8 million aholimiz bor» , – deb ma’lumot berdi. U prezident murojaatnomasida ayni shu toifadagi insonlarni rasmiy sektorga o‘tkazish masalasi qo‘yilganini ta’kidladi.

1991-yilda Jenevada Yevropa statistiklarining norasmiy iqtisodiyotga bag‘ishlangan konferensiyasi bo‘lib o‘tgan. Iqtisodiy adabiyotlarda xufyona iqtisodiyotga turli ta’riflar berilgan: 1. Yashirin iqtisodiyot qonun asosida man qilingan faoliyat turlari deb ta’riflanadi. 2. Yashirin iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatning kuzatilmagan hamda yashirin faoliyat turi. 3. Xufyona iqtisodiyot rasmiy statistikada u yoki bu sabablarga ko‘ra hisobga olinmagan har qanday iqtisodiy faoliyat bo‘lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritilmaydi hamda soliqqa tortishdan chetda qoladi.⁴

Bugungi kunda mamlakatimizda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbuslari va bevosita rahnamoligida iqtisodiyotni rivojlantirish va investitsiyalarni faol jalb qilish hamda qonun ustuvorligini ta’minlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

⁴ : Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодий ҳавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019.-485-бет.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF- 5953-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2021-2027 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida «yashirin iqtisodiyot»ning ulushini qisqartirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Yashirin iqtisodiyotning bir qancha turlari (masalan, soliq to‘lashdan bosh tortish) davlat tomonidan tartibga solish jarayonidagi ayrim kamchiliklar sababli yuzaga keladi, masalan soliq stavkalari yuqoriligi. Cheklovlar tartibga solish mumkin emas va asossiz cheklovlar ularning buzilishiga olib keladi, ayniqsa bu foydali bo‘lsa.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda mamlakatimizda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbuslari va bevosita rahnamoligida iqtisodiyotni rivojlantirish va investisiyalarni faol jalb qilish hamda qonun ustuvorligini ta‘minlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF- 5953-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2021-2027 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar

strategiyasini «Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida «yashirin

iqtisodiyot»ning ulushini qisqartirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, 2020-yil 30-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Korrupsion jinoyatlar bilan yashirin iqtisodiyot chambarchas bog‘liqligi sababli, korrupsiyaga qarshi kurashish orqali yashirin iqtisodiyotni kamaytirish mumkin degan xulosaga olib keladi. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi bu boradagi ilk qadamdir.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotda yashirin iqtisodiyotning ulushi 50%dan ko‘proqni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlar 2017 yil holatida jahon miqyosida 22.5%ni, Ozarbayjonda- 66.12%,

Ukrainada-46.12 %, Rossiyada-39.29 %, Turkiyada-24.95%, Hindistonda-16.55 %, Xitoyda — 10.17%, AQSHda-7.69 %ni tashkil etadi. Ayni paytda, jahon miqyosida mazkur ko‘rsatkichlar 2025- yilga borib pasayib 21%ni tashkil etishi bashorat qilingan

BMT Taraqqiyot dasturi konsultantlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari ham ushbu davra suhbatida e‘lon qilindi. O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyot miqyosini monetar

usullar asosida, shuningdek, respublika hududlarida 700 dan ortiq korxonalar va 30 nafar tadbirkor o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish yo‘li bilan baholangan. Xufyona iqtisodiyotning asosiy sabablari soliq turlarining, yig‘imlar, majburiy ajratmalar sonining va ular miqdorining ko‘pligi ekanligi ta’kidlandi. Ushbu sabablarga korxonalarda yetarli miqdorda mablag‘larning yo‘qligi, banklar bilan bo‘ladigan hisob-kitoblarni va to‘lovlarni amalga oshirishdagi, xizmat ko‘rsatish sifati, kredit stavkalarining yuqoriligi bilan bog‘liq muammolar ham kiradi. Noiqtisodiy tavsifdagi sabablarga tadbirkorlarning bilim va tajribalarining, raqobat, ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarli emasligi, biznesni tashkil etish va yuritishdagi ma‘muriy to‘siqlarning mavjudligi, korrupsiya va mulk huquqining himoya qilinmaganligi kiradi⁵

Ayrim ekspertlarning fikricha, O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotning YaIMdagi hajmi 50 foiz atrofida. Agarda raqamlarga murojaat etadigan bo‘lsak, 2019 yilda respublikamizda Davlat budjeti daromadlar qismi 102,6 trln so‘mni tashkil qilmoqda. Yalpi ichki mahsulot qiymati 424 trln so‘m qilib belgilandi. Shunda ekspertlar fikriga ko‘ra, yashirin iqtisodiyotning 50 foiz ulushi 212 trln.so‘mni tashkil etmoqda. Ushbu summadan yashirin iqtisodiyotning optimal hajmi 15% ($424 \cdot 15\% = 64$)ni chiqarib tashlanganda, 148 trln so‘m ($212 - 64$) mablag‘ iqtisodiyotdan tashqarida aylanayotgani ma‘lum bo‘ladi. Agarda biz ushbu mablag‘ning belgilangan tartibda qonuniy aylanmasiga erisha olsak, Davlat budjetiga soliqlar to‘lanishi natijasida qo‘shimcha o‘rtacha 15-20 trln.so‘m (2,3 mlrd AQSh dollariga teng) mablag‘ tushirilishi mumkin. Bugungi kunda bitta umumta‘lim maktabini yangitdan qurish uchun o‘rtacha 5 mlrd so‘m mablag‘ sarflanadi. Demak, bir yillik yashirin iqtisodiyot keltirayotgan zararga teng mablag‘ni 4 mingga yaqin umumta‘lim maktablari qurish yoki aholi turmush sharoitlarini yanada yaxshilash uchun yo‘naltirish imkoni paydo bo‘ladi⁶

Xulosa va takliflar

Mazkur maqola doirasida amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko‘ra “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish va bartaraf etishning ayrim tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirish yuzasidan quyidagi xulosa va takliflar beriladi:

—naqd pullik to‘lovlarni qisqartirish va masofaviy yoki elektron to‘lovlarni rag‘batlantirishga qaratilgan chora tadbirlar;

—jinoiyat kodeksiga ayrim iqtisodiy qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik kiritish

Mazkur chora-tadbirlar iqtisodiy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari yanada takomillashtirish, insofli tadbirkorlarni qo‘llab- quvvatlash, o‘zaro hamkorlik va jamoatchilik nazoratini rag‘batlantirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va oldini olishga xizmat qiladi.

⁵ Одилжон Иминов. “Яширин иқтисодиёт”нинг яширинмаган сирлари //http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/67316-yashirin-iqtisodiyotningyashirinmagan-sirlari

⁶ Мақсуд Курбонбоев. Депутат фикри: Яширин иқтисодиётнинг келиб чиқиш сабаблари, жамиятга таъсири ва бартараф этиш йўллари.// <https://kun.uz/news/2019/05/04/deputat-fikri-yashirin-iqtisodiyotning-kelib-chiqishsabablari-jamiyatga-tasiri-va-bartaraf-etish-yollari>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Williams, C. C. and Schneider, F. (2016). Measuring the Global Shadow Economy: The Prevalence of Informal Work and Labour. Edward Elgar Publishing, UK
2. Ali o‘g‘li A.O. Statistical study of direct maintenance of small business activities in the regions // EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEBR). – 2022. – T. 10. – №. 6. – C. 30–33.
3. ABULQOSIMOV H.P., MUMINOV N.G. ”Xufiyona Iqtisodiyot”
4. <https://lex.uz/docs/-5073459?ONDATE=08.07.2022>
5. <https://yuz.uz/uz/news/yashirin-iqtisodiyotni-qisqartirish-va-korrupsiyaning-oldini-olish-masalalari-muhokama-qilindi>
6. International survey: The shadow economy. F. Schneider, H. Dominic
7. https://www.researchgate.net/publication/227390150_The_Shadow_Economy